

gave ceremonial rites devoted to Bobozangi.

The origin, stock and health of the cattle played an important role in developing the

cattle-breeding. Therefore the inhabitants of the oasis paid a great attention from the old times till the present time.

REFERENCES:

1. About traditional Uzbek cuisine and its ethnic and non-ethnic components, see: Shaniyazov K. About traditional food of Uzbeks // Ethnographic study of everyday life and culture of Uzbeks. - Tashkent, 1972. -P. 106; Makhmudov K. Uzbek cuisine. - Tashkent, 1960; This author.
2. Shaniyazov K.Sh. About the traditional food of the Uzbeks // Ethnographic study of the life and culture of the Uzbeks. - Tashkent, 1972. -P. 97.
3. Field records. 2020-2021, Denov, Uzun, Sariosy districts.
4. The Tajiks of the Northern Surkhandarya oasis called the patir bread "fatirnon". Field records. 2020. Tomarkhut and Khufar villages of the Sarios region. By this name the Tajiks Koragina and Darvaza also called patirnon. See N.A. Kislyakov. Tajiks Karategin and Darvaza. - Dushanbe, 1976. -P. 231.
5. Field records. 2020. Sina village of Denov region. More about this: Snesev G.P. Relics of pre-Muslim beliefs and rituals among the Uzbeks of Khorezm. -M., 1969. -P. 101- 102.
6. Field records. 2020. The village of Khufar, Sariosy district.

NUROTA TIZMASI SHIMOLIY YON BAG'RI QISHLOQLARINING TARIXIY GEOGRAFIYASI

Berdiyev Azamat Abdiyevich,
Samarqand viloyat muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimi
bazamat233@gmail.com

Аннотация: Ushbu maqolada Samarqand, Jizzax va Navoiy viloyatlari teretotiyasida joylashgan Nurota tizma tog'lari markaziy qismining shimoliy yonbag'rida joylashgan, asosan tojik tilida so'zlashuvchi aholi istiqomat qiluvchi qishloq manzilgohlarning geografiyasi, tabiati, hayvonot dunyosi va iqtisodiy omillari haqida qisqacha bayon etilgan.

Калит сўзлар: Sintop, Uxum, Porasht, Oqtog', Qoratog', Ceversev, apollon, mnemozina, anzur piyozi, yovvoyi olma, qayrog'och.

Аннотация: В данной статье кратко описаны география, природа, животный мир и хозяйственные факторы сельских поселений, расположенных на северных склонах центральной части Нуратинского хребта, расположенных на территории Самаркандской, Джизакской и Навоийской областей, населенных преимущественно таджиками. -говорящее население.

Ключевые слова: Синтоп, Ухум, Порашт, Октог, Каратог, Цеверсев, Аполлон,

Мнемосина, Анзурский лук, дикая яблоня, Карёгоч.


Annotation: This article briefly describes the geography, nature, animal world and economic factors of the rural settlements located on the northern slopes of the central part of the Nurota mountain range, located in the territory of Samarkand, Jizzakh and Navoi regions, inhabited mainly by the Tajik-speaking population.

Key words: Sintop, Ukhum, Porasht, Oktog', Karatog', Tseversev, Apollon, Mnemosina, Anzur onion, Wild apple, Karagoch.

Pomir-oloy tog' tizimi Tyanshandan Farg'ona botig'i orqali ajraladi. Bu tog' tizimining shimoliy qismi Oloy-Hisor tizmalari hisoblanadi. Mazkur tizmalarga Oloy, Turkiston, Nurota, Zarafshon va Hisor tizmalari kiradi [1:356]. Morguzar tizmasining shimoliy-g'arbiy davomi Nurota tog'larini Sangizor daryosida hosil bo'lgan "Temurlang darvozasi" ajratib turadi.

Nurota tizma tog‘larining paydo bo‘lishi O‘rta Osiyoning boshqa tog‘ tizmalariga bog‘liqdir. Olimlarning fikricha poliozoy erasining oxirigacha (250-300mln. yil avv.) O‘rta Osiyoning aksariyat qismi suv ostida edi (Berg L.S.1952; Gvozdeskiy N.A. 1970; Voskrisenskiy S.S.1968y;). Tog‘larning asta sekin paydo bo‘lishi qadimgi (gersen), o‘rta

(mezazoy) va yangi (alp) davrlarda vujudga keldi. Nurota tog‘lari Tyanshan tog‘lari singari qadimgi (gersen) davriga oid bo‘lib, barcha davrlardagi proseslarni boshdan o‘tkazgan. Shu nuqtai nazardan taxmin qilish mumkinki, Tuzkon ko‘li va Aydar ko‘l ham Orol va Kaspiy dengiz singari qadimgi Tetis okeani qoldiq izlari bo‘lishi mumkin [2:12].



“Forish tojiklari” yashaydigan hududning karta-sxemasi

Nurota tog‘lari-Turkiston tizmasining shimoliy-g‘arbiy tarmog‘i, Navoiy, Samarqand va Jizzax viloyatlartida jolashgan. Janubdan Zarafshon botig‘i, shimoldan Qizilqum cho‘li bilan chegaralangan[3:344]. Nurota tog‘lari ikkita tizmadan iborat. Buni shimoliysi Nurota tizmasi deb atalib, janubi-sharqdan shimoli-g‘arbgacha 300 km cho‘zilgan, o‘rtacha kengligi 50-70 km, o‘rtacha balandligi 1260 m tashkil qiladi va tizmaning markaziy qismi nisbatan baland, o‘rtacha balandligi 1750 m, eng baland joyi 2169m gacha ko‘tariladi(Hayotboshi cho‘qqisi). Tizmaning shimoliy yon bag‘ri tik bo‘lib, kichik daryo va soylar bilan qiymalangan. Suvayirg‘ich qismi tekis, faqat ba’zi bir joylarda qoyali cho‘qqilar ko‘tarilib turadi [1:357;4:58;5:151;3:344].

Nurota tog‘larining janubiy tizmasi bir qancha tog‘ tizmachalaridan: G‘o‘bdintog‘, Qaroqchitog‘, Oqtog‘ va Qoratog‘lardan iborat.

Ularning balandligi 1150-2006m o‘rtasida bo‘lib, shimoliy Nurota tizmasidan boshlanadi[1:403]. Bu tizmalardan shimolga taxminan 15km ga yetib boradigan yassi tekislik borib taqaladi[4:58].

Qish qisqa, unchalik sovuq emas. Yog‘ingarchilik miqdori kam (350-500mm). Eng kop suv oqadigan yirikroq soylarning (Osmonsoy, Kulbasoy, Uchmasoy, Uxumsoy, Mojrum, Sentob) o‘rtacha suv sarfi 250-450 l/sek dan ortiq emas. Nurota tizmasidan ko‘pdan ko‘p bo‘laklardan tashkil topgan kichik-kichik soylar oqadi. Soylarning daradan chiqandan keyin tekislikda g‘oyib bo‘ladi. Bahorda yomg‘irlar yog‘ib, qorlar eriganda, bu soylar loyqa suvli joshqin daryolarga aylanadi. Tizmaning sharqiy sektoridagi soylar daralardan chiqqandan so‘ng Pistalidog‘ va Pastdog‘ etaklari tomon yo‘l oladi[4:59].

Nurota tog‘lari Sharafuddin Ali

Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Kuhi Nur deb berilgan[7:261].

Nurota tog‘larida 1975 yilda tashkil etilgan davlat qo‘riqxonasi mavjud bo‘lib, Jizzax viloyatining g‘arbiy qismi, Forish tumaida, Nurota tog‘ining shimoliy yon bag‘rida joylashgan. Maydoni 17752 ga, shu jumladan o‘rmonlar bilan qoplangan 2599 ga(2001y), dengiz sathidan 530-2100 metr balandlikda joylashgan. Asosan shu hududning o‘simlik va hayvonot olamini himoya qilish maqsadida tashkil qilingan mazkur makonda xalqaro va O‘zbekiston Qizik kitobiga kiritilgan arxarning Osiyo qoyi turiga mansub Ceversev (qizilqum) qoyi populiatsiyasi hamda yong‘oqning xilma-xilligini saqlash ishlari olib borilmoqda.

Hayvonot olamida Qizil kitobga nomi kiritilgan hashorotlardan asalari-duradgor, apollon, mnemozina uchraydi, sudralib yuruvchilarning 20 turi mavjud, shundan kulrang echkiemar maxsus qo‘riqlanadi. Qushlarning 150 turi mavjud, ularning 17 turi muhofaza royxatidan joy olgan, masalan: ilon burgut, boltayutar; sut emizuvchilardan 35 turi bor.

Qo‘riqxonada o‘simliklarni 630 tadan, qushlarning 195 tadan, hayvonlarning 60 tadan ortiq turi bor. Osimlik dunyosi boy bo‘lib, lolaninghar xil turlari, anzur piyozi, yovvoyi olma, qayrog‘ochlar o‘sadi. Butalar qoplami, asosan, Turkiston do‘lanasi, qizil, uchqat, zirk, igr‘ay, yovvoyi toklardan iborat [1:218].

Tuproqlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi. Shimoliy Nurota tog‘larining va tog‘oldi rayonlarining tuproq qoplami tabiiy geografik sharoit xususiyatlari va namlanish ta’siri ostida shakllanadi. Tuproq qoplaminig ona jinsi bo‘lib nurash mahsulotlarining yirik mahsulotlardan to maydalangan to‘rtlamchi tog‘ jinslarigacha xizmat qiladi. Tuproq hosil bo‘lishining biologik jarayonlari absalyut balandlik yonbag‘irlarning tikligi va qaysi tomonga qaraganligi bog‘liq bo‘lib, bu omillar tuproq qoplaminig ola-bula bo‘lishiga sabab bo‘ladi[8:76]. Tuproq ona jinsli bo‘lib elyuval, delyuval hamda prolyuval va allyuval tog‘ jinslaridir. Tog‘ oldi tekisligida asosan tuproq hosil qiluvchi bu lyoss va lyossimon suglinkalardir. Ular bo‘z tuproq tipidagi tuproqlarning tuproq hosili qiluvchi tog‘ jinslaridir. Shimoliy

Nurota tog‘lari va tog‘ oldi tekisliklarida quyidagi tuproqlar ajratiladi:

1. Tik yon bag‘irki o‘rtacha balandlikdagi jigarrang tuproqlar;
2. Past tog‘lardagi qoramtir bo‘z tuproqlar;
3. Tog‘ oldi prolyuvial tekisliklaridagi och tusli bo‘z tuproqlar; [11:263].

Jigarrang tuproqlar Shimoliy Nurota tog‘larining eng baland suv ayirg‘ichi qismlarining va tik yon bag‘irlari o‘rtacha balandligidagi tog‘lar yon bag‘rida 1100 metrdan 2169 vetrigacha bo‘lgan balandliklarni ishg‘ol qiladi. Jigarrang tuproqlar intruziv granit, ohaktosh va slanetslar ustida hosil bo‘lib, jigarrang tusga ega bo‘lib, odatda ani ifodalangan gumus granitlari ham mayda jinsli o‘tuvchi gumus gorizontlari ham mayda tosh aralash tuzilishi bilan xarakterlanadi[10:262].

Shimoliy Nurota tog‘laridagi tipik jigarrang tuproqlar asosan suvayirg‘ichning o‘simliklar bilan qoplangan yon bag‘irlarida shakllangan. Yuqori gumusli jigarrang tuproqlar ko‘pincha qavariq yon bag‘irlariga mayda jinsli qoplamalar hosil bo‘ladigan joylarga to‘g‘ri keladi. Korbonatli jigarrang tuproqlar esa qavariq releflariga to‘g‘ri kelib, o‘simlik qoplami siyrak bo‘lgan yonbag‘irlarda shakllanadi. Jigarrang tuproqlarning yuqori gums gorizontida gums 3-8% ga yetadi. Qoramtir bo‘z tuproqlar asosan past tog‘lar uchun xos bo‘lib, Shimoliy Nurota tog‘larining shimoliy yonbag‘irlarida 800 m, janubiy yonbag‘rida esa 700-750m dan 1100-1200 m balandliklar orasida tarqalgan. Qoramtir bo‘z tuproq turlarining tarqalishi ko‘pincha relef iqlimiga yon bag‘ir tikligiga qaysi tomonga qaraganligiga qarab farq qiladi. Masalan, yon bag‘irlarning pastki qismida korbonatning ko‘pligi, shimoliy yonbag‘irlarda esa gumus qavatining qalinligi bilan xarakterlanadi. Qoramtir bo‘z tuproqlarning yuqori gorizontida gumus 2,5% dan 4,5% gacha yetadi. Yuqori qavatli past chuqurlikka qarab gumus kamayib boradi [10:325].

Tipik bo‘z tuproqlar Shimoliy Nurota tog‘larining janubiy yonbag‘ridagi tog‘ oldi tekisliklarining (Nurota va Qo‘shrabot botiqlari) o‘q qismida va Shimoliy Nurota tog‘larining shimoliy tog‘ oldi tekisliklarining yuqori qismida tarqalgan.

Shimoliy Nurota tog‘larining janubiy

yonbag'irlaridagi tirik bo'z tuproqlar juda qalin bo'lib, yuqori gumus gorizontida gumus 2-2,5% ga yetadi. Tirik bo'z tuproqlar Shimoliy Nurota tog'larining shimoliy yonbag'rining faqat markaziy qismida va sharqiy qismida tarqalgan. Och tusli bo'z tuproqlar tog' tizimini ng'arbiy qismida va tog' oldi yon bag'irlarida tarqalgan [10:262].

Shimoliy Nurota tog'larining shimoliy yon bag'irlaridagi nishab tog'oldi tekisliklarida (Forish cho'llarida) och bo'z tuproqlar tarqalgan. Shimolda Aydar ko'larga borgan sayin och bo'z tuproqlardagi tuz tarkibi ko'payib, sho'rxokli tuproqlarga aylinib ketadi. Shimoliy Nurota tog'larining tabiiy sharoitining murakkabligi tufayli o'simlik qoplami xilma-xildir. Shimoliy Nurota tog'larida ham o'simliklarning tarqalishida vertikal balandlik qonuniyatiga boysunadi. O'simliklarning vertikal balandlik boylab tarqalishida biz akademik O.Z.Zokirov balandlik mintaqaviy sxemasini asos qilib olamiz. Biz o'rganayotgan hududda quyidagi balandlik mintaqalari uchraydi: cho'l, adir, tog. Bu yerda yaylov mintaqasi yo'q. Tog' mintaqasi Shimoliy Nurota tog'larining eng baland qismi 1200 m murakkab bo'lib, Shimoliy Nurota tizmasi va undan ajralib chiqqan meredional cho'zilgan ikkinchi darajali tog' tizmalarining ham relef tuzilihi murakkab. Tog' balandlik mintaqasida joyning kompleks tabiiy sharoitiga bog'liq holda o'simliklarning 4 ta tipi bo'linadi [11:412]:

1. Tog' chimli dashtlari;
2. Har xil o'tloqlardan va bug'doyiqlardan iborat quruq dasht;

3. Tog' kserofitlari;

4. Butali o'simliklar;

Tog' dashtlari betaga dashti bilan bug'doyiq dashti o'rtasidagi o'tuvchi mintaqadir. Betaga dashtlari Shimoliy Nurota tog'larining suvayirg'ich (Pangatsoy, Osmonsoy, Fozilmontov) atrofida o'sib yotadi. Asosiy edifaktori boshqoli betagadir. Betaga dashtlari Shimoliy Nurota tog'laridagi eng yaxshi joydir. Bug'doyiq va har xil o'tlardan iborat quruq dasht yuqordagi o'simlik tiplariga nisbatan gipsometrik joylarni egallaydi. Bu o'simlik tipiga ikkita o'simlik, ya'ni bug'doyiq va har xil o'tqli-bug'doyiq formatsiya bo'ladi. Bug'doyiq fomatsiyasidan tashqari qo'ziquloq bug'doyiq, shirach bug'doyiq formatsiyalari bor.

Shimoliy Nurota tog'larining suv ayirg'ichida tog' kserofitlari o'simlik tipi asosan juda ko'p tarqalgan. Balandligi 1,5 v ga yetadigan yostiqlimon bo'lib, kuzinli, akontasimon va tragantli formatsiyalardan iborat. Kuzinli formatsiyalar asosan toshloqli yon bag'irlariga xos. Akontasimon formatsiya esa qadimgi denudatsion yuzalarga xarakterlidir [12:268].

Butali o'simlik tipi Shimoliy Nurota tog'larinig janubiy yonbag'ridagi To'sinsoy, Oqtepasoy havzalarinig yuqori qismida keng tarqalgan. Butalarning asosiy turlaridan bodomdir. Undan tashqari efedra, uchqat, na'matak, ilg'ay va boshqalar uchraydi. Adir mintaqasi o'simlik qoplaminig asosi qismini efemerlar tashkil etadi [13:210]. Bu yerda efemerlardan rang, qo'ng'irbosh' mayinshuvoq, mingbosh, chitir va boshqalar o'sadi. Shimoliy-sharqiy qismida qo'ziquloq formatsiyasi keng tarqalgan. Cho'l mintaqasi Shimoliy Nurota tog'larining shimoliy yonbag'irlarida qiyali tog' oldi tekisligi (Forish cho'llari) o'simlik qoplami asosan efimir va shuvoq tiplaridan iborat, cho'lning markaziy tog'ga yaqin qismida Jung'oriya irisi keng tarqalgan [14:357]. Asosiy o'simlik qoplami shuvoq (turon shuvog'i, so'g'diyona shuvog'i va boshqa), kovul, yantoq va boshqalar. Lalmikor rayonlarida esa qiltiq formatsiyasi keng tarqalgan, bu formatsiya ikkilamchi formatsiya bo'lib, inson faoliyati ta'siri natijasida shakllangan. Keyingi vaqtlarda Aydar ko'llar tizimidagi suv sathining ko'tarilishi natijasida va tuproq sho'rlanishining oshib borishi munosabati bilan Qizilqum cho'lining Nurota tizmasi shimoliy yon bag'ri bilan tutashgan qismlarining o'simlik qoplami ham o'zgarib, sho'ra tipidagi o'simlik turlari ko'payib bormoqda. Shimoliy Nurota tog'lari va uning atrofining murakkab tabiiy geografik sharoiti har holda hayvonot dunyosining xilma xil bo'lishiga imkon bergan. Kuchli parchalangan Nurota tog'larining ayrim qismlarida baland tog' o'lkalarining hayvonlari, jumladan arxar, yotiq suv ayirg'ichlarida va soyliklarda cho'chqa va bachqilar yashaydi [15:284]. Tog' mintaqasining hayvonot dunyosi ancha xilma-xildir. Bu yerda nisbatan sut emizuvchilarning turi ko'p, lekin, sonlari kam.

Shimoliy Nurota tizmasining markaziy

qismaida arxar, cho'chqa, shuningdek bori, tulki va qashqirlar uchraydi. Tog' tizmasida qushlar turlari ko'p, ayniqsa kaklik va burgut juda ham ko'p uchraydi. Sudralib yuruvchilaridan ilonlarning har xil turlari bor, ayniqsa, tog' mintaqasining daryo vodiylarida hayvonlarning har xil turlariga boy.

Nurota tizma tog'lari markaziy qismining shimoliy yonbag'rida joylashgan, asosan tojik tilida so'zlashuvchi aholi istiqomat qiluvchi 11-ta qishloq manzilgohlari joylashgan hudud aholisi etnik jihatdan juda murakkab va nisbatan kam o'rganilgan. Shu sababli, mahalliy

aholining hududiy taqsimoti va etno-geografik xususiyatlari o'ziga jalb qiladi ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini tortdi. Tarixchilar A.N.Xoroshxin, M.S.Andreev, Y.G'.G'ulomov, A.T.Muxtarov, etnograflar B.X.Karmisheva, E.M.Peshchereva, V.G.Moshkova, A.I.Shevyakov, geograflar M.N.Nurnazarov, K.M.Hakimovlar tashrif buyurdilar. Bu joylarda yashovchi mahalliy aholi turli ekspeditsiyalarning asosiy obekti bo'lgan. Shuni ta'kidlash kerakki, ular bugungi kungacha to'plangan ma'lumotlarilmiy ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Rafiqov. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. T.: O'qituvchi n. 2002.
2. Mahmudi Forishy. Тоҷикони Фориш. Guliston-2000;
3. O'z.M.E. 2002.
4. Y.G'.Gulomov, Xorazmning sug'orilish tarixi, 1959., 58-b
5. Hakimov K.M. Forish tojiklari: hududiy joylashuvi va ayrim etnogeografik xususiyatlari. SamDU Ilmiy axborotnoma. 2020. 5-s.(123),151-b.
6. Mahmudi Forishy. Тоҷикони Фориш. Guliston-2000; 12-b.,
7. Omonullo Bo'riyev. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi. T.: 2017y., 261-b
8. Betextin A.V. Mineralogiya kursi. -T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1969y.,76-b
9. Bochever F.M., Garmonov I.V., Lebedev A.B., Shestakov V.M. Osnovi gidrogeologicheskix raschetov. -M.: Izdatelstvo "Nedra", 1969.c-263
10. Goldberg V.M., Gazda S. Gidrogeologicheskoye osnovi oxrani podzemnix vod ot zagryazneniY. -M.: "Nedra", 1984. 262 s.
11. Zokirov O. Z., O'rta Osiyo geologiyasi. T.:1969y. 412-b
12. Ivanova M.F. Obshaya geologiy. -M.: "Visshaya shkola", 1974. 268-b.
13. Kats D.M. Kontrol rejima gruntovix vod na oroshayemix zemlyax. -M.: "Kolos",210-b.
14. Injenerno-geologicheskoye issledovaniya pri proyektirovani i stroitelstve gidroenergeticheskix soorujeniy.- M.:L.: Gosenergoizdat, 1954.357-b.
15. Kats D.M. Osnovi geologii i gidrogeologii. -M.: "Kolos", 1981.284-b

SURXON VOHASI AHOLISINING MIGRATSION JARAYONLARI. (1930-1950 yy.)

Eshmo'minov Ozodbek Ziyodulla o'g'li,
Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda aholining etnodemografik jarayonlari hamda aholi migratsiya jarayonlarini ilmiy tadbiq etish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ushbu maqolada sovet davrida aholini ko'chirish siyosati va uning janubiy vohalardagi

aholi demografik jarayonlarga ta'siri masalalari yoritilgan,

Tayanch so'zlar: Aholi migratsiyasi, yangi yerlar o'zlashtirilishi, aholi ijtimoiy turmush darajasi, paxtachilikni rivojlantirish, ko'chirilgan xo'jaliklar ijtimoiy ahvoli, aholi